

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**II RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

YANVAR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, yanvar

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil).– 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Abdulbositova Muborak

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR 9-11

Anvarbekova Ruxsora

DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISHDA PYTHON KUTUBXONALARINING
IMKONIYATLARI 12-14

KIMYO FANLARI

Kosimova Zuxra

OKSIDLANISH STRESSI VA UNING TROMBOSITLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI 15-18

Xoshimov Nozimjon, Kosimova Zuxra

ORGANIZMDAGI OKSIDLANISH STRESS HOLATIDA POLIFENOLLARNING ROLI 19-22

BIOLOGIYA FANLARI

Shertoyeva Risliqoy, Mavlanova Sadbarxon

O'ZBEKISTONNING SHARQIY MINTAQASIDA (NAMANGAN) YASHOVCHI 7-16 YOSHLI
BOLALAR VA O'SMIRLARDA KO'RISH CHAQRILGAN POTENSIALLARINING YOSHGA XOS
NORMATIV KO'RSATKICHLARI 23-25

TEXNIKA FANLARI

Qurbonov Mahmudjon, Umarov Abdusalam, Kuchkarov Khoshimjon, Khursanova Odina

STRUCTURAL FEATURES OF POLYAMIDE 6 WITH INCLUSIONS OF IRON OXIDE
NANOPARTICLES 26-38

Valixonov Ilyosbek

KOMPYUTERLI KO'RISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IMO-ISHORA TILINI MATNGA
O'GIRISH TIZIMLARINI TADQIQ ETISH 39-42

Qurbonov Mahmudjon, Kuchkarov Khoshimjon, Umarov Abdusalam

WITH STRUCTURE FORMATION AND THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE
COMPOSITION BASED ON POLYAMIDE WITH IRON OXIDE NANOPARTICLES 43-53

TARIX FANLARI

Nurullayeva Nabira

ISLOHATLAR, YARATILGAN IMKONIYATLAR – XOTIN-QIZLAR UCHUN IMKONIYAT
ESHIGI 54-56

Yuldashev Ulugbek

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHI TARIXI 57-60

To'ychiyeva Dilnoza, Ergasheva Go'zal

ZOMIN TUMANIDAGI TURIZM TARMOQLARINING RIVOJI XUSUSIDA 61-64

Мирзамидинова Шахноза

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРОБЛЕМАМИ ЯЗЫКА И
ОРФОГРАФИИ, В ПУБЛИЦИСТИКЕ АШУРАЛИ ЗОХИРИ 65-67

Raxmatov Xayrulla

BUXORO VOHASI MA'MURIY-HUDUDIIY BIRLIKLARI VA AHOLISI (XIX ASRNING SO'NGGI
CHORAGI – XX ASR BOSHLARIDA) 68-71

IQTISODIYOT FANLAR

Yusupov Nurillo

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI 72-76

Mehmonova Shodiyonaxon

SHHT DOIRASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI VA UNING O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTIGA TA'SIRI 77-80

Ibadullaeva Shokhida

EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN APPLYING MARKETING STRATEGIES IN
EXPORTING ENTERPRISES 81-87

Yusupov Nurillo

KORXONALARNING BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH
USULLARI 88-92

FALSAFA FANLARI

Rahmatullayev Mardonbek

KIBER MAKONDA SHAXSIY VA JAMOAVIY ERKINLIKNI MUVOZANATLASH
STRATEGIYALARI 93-96

Nabiyev Sherzodjon

DIGITAL DUNYODA YOSHLAR SHAXSIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI
MUAMMOLAR 97-102

Saydaliyev Ilyosbek

MURAKKAB MUHITDAN KELGAN YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI
SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOY-FALSAFIY RO'LI 103-106

Meliboev Azizjon

YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM ORQALI KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH VA
XALQ FAROVONLIGINI TA'MINLASH 107-111

FILOLOGIYA FANLARI

Aminov Farrux

INGLIZ VA O'ZBEK OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA AXBOROT UZATISHNING
MULTIMODAL STRATEGIYALARI VA KOGNITIV MEKANIZMLARI 112-119

Jo'rayeva Madinaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR: O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI VA SUN'IY INTELLEKT SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR
MISOLIDA 120-124

Isakova Barchinoy

JEK LONDONNING "MARTIN IDEN" HAMDA O'TKIR HOSHI MOVNING "NUR BORKI, SOYA
BOR" ROMANLARIDAGI POETIK VOSITALAR TAHLILI 125-128

Азизова Насиба

ИССЛЕДОВАНИЕ КОНЦЕПТА ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ А. С. ПУШКИНА, Н. В. ГОГОЛЯ И Л. Н.
ТОЛСТОГО АЛИШЕРА НАВОИ, ЗАХИРИДДИНА БАБУРА) 129-134

Toshboyeva Odinaxon

INGLIZ VA O'ZBEK INTERNET GAZETA SARLAVHALARIDA LEKSIK-SEMANTIK VA SINTAKTIK
VOSITALAR ASOSIDA PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI 135-138

<i>Umirzakova Dilnoza</i>	
ANIMATSION FILMLAR TARJIMASIDA LINGVOPRAGMATIK OMILLAR: QIYOSIY TADQIQOT	139-144
<i>Jabborova Aziza</i>	
SIYOSIY KOMMUNIKATSIYADA EVFEMIZMLARNING AUDITORIYAGA TA'SIRI	145-149
<i>Boykhanov Shukhratjon</i>	
UNDERSTANDING ENGLISH PROVERBS: LEXICAL, STYLISTIC, PSYCHOLOGICAL, AND PRAGMATIC DIFFICULTIES	150-155
<i>Narzulloyeva Maftuna</i>	
A COMPARATIVE ANALYSIS OF OFFICIAL LETTERS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	156-158
<i>Abdullayeva Dildora</i>	
QUTADG'U BILIG FRAZELOGIZMLARINING SEMANTIK-PRAGMATIK TABIATI VA LISONIY TADQIQI	159-162
<i>Umrzaqov Islomjon</i>	
"JANUB RENESSANSI" DAVRI ASARLARIDA BADIY MAKON VA ZAMON POETIKASI	163-165
<i>Fayzullayeva Nozima</i>	
YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR	166-168
<i>Ergashev Nodirbek</i>	
SOCIAL INJUSTICE AND MORAL VALUES IN "OLIVER TWIST" BY CHARLES DICKENS	169-171
<i>Ubaydullaeva Dilfuza</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI (IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISHDA)	172-178
GEOGRAFIYA FANLARI	
<i>Umarov Javohir</i>	
FARG'ONA VILOYATI YER RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	179-185
YURIDIK FANLAR	
<i>Hakimboyeva Dildora</i>	
ELEKTRON HUKUMAT VA MA'MURIY HUQUQ MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI	186-188
<i>Самигжонов Зилола</i>	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ НОРМЫ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ ЗАЩИТУ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В СЕТИ ИНТЕРНЕТ	189-195
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Xomidjonov Abrorjon</i>	
OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIMDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISH TAJRIBASI	196-202

<i>Sodiqova Gulnora</i> KASBIY TA'LIM TIZIMIDA ISH BERUVCHILAR BILAN SAMARALI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARI	203-208
<i>Soliyeva Gavharoy</i> "HISOBLASH USULLARI" FANI BO'YICHA O'QUV KONTENTI	209-212
<i>Isaqov Abduvohid</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA METODIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	213-217
<i>Юсупова Наргиза, Юсупов Дильшод</i> ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ЮНЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ: АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВ РАЗВИТИЯ	218-221
<i>Ganiyev Elyorbek</i> TALABALARDA HUQUQIY TAFAKKUR VA TAHLILII KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKASI	222-226
<i>Xabibullayev Alimardon</i> TALABALAR MOBILLIGI VA QO'SHMA TA'LIM ASOSIDA INNOVATSION VA BARQAROR RIVOJLANISH MODELINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK- INSTITUTSIONAL ASOSLARI	227-233
<i>Nigmatova Nozimaxon</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING XORIJIY AMALIYOTI VA PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	234-237
<i>Юсупова Наргиза</i> АНАЛИЗ БИОМЕХАНИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ АТАКУЮЩИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ (WT)	238-241
<i>Abdullayeva Asila</i> O'ZBEKISTONNING SO'NGGI TARIXI VA FALSAFA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK UYG'UNLIK	242-247
<i>Ergasheva Nigora</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING METODIK VAZIFALARI	248-251
<i>Alimova Mashxuraxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHDA KONSTRUKSIYALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	252-255
<i>G'ofurova Barnoxon</i> TALABALARINING KONSEPTUAL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMNING METODIK SHART-SHAROITLARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	256-260
<i>Axmedov Yodgorbek</i> ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARI O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATIDA TINKERCAD PLATFORMASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	261-263

<i>Qozaqova Munajat</i> MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISHDA TALABALAR LOYIHALASH KO'NIKMASINI KO'RGAZMALILIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	264-267
<i>Парниева Айгуль</i> АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ СОВРЕМЕННОГО СТУДЕНТА	268-271
<i>Nosirova Shoiraxon</i> INGLIZ TILIDA KASBIY MULOQOT XULQINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	272-278
<i>Azizova Mohiniso, G'ulomova Sevara</i> MAKTAB DARSLARIDA RA'NODOSHLILAR OILASINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH	279-281
<i>Jalilova Xolidaxon</i> METHODOLOGY FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF TEACHING ENGLISH USING WEBQUEST TECHNOLOGY	282-284
<i>Abduvaxobov Shohruhbek</i> MASOFADAN TA'LIM JARAYONIDA UCHRAYDIGAN AMALIY MASALALAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA METODIK YONDASHUVLAR	285-287
<i>Аюпов Тимур</i> СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ВУЗАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	288-290
<i>Tillayeva Nilufar</i> DIALOGIC PEDAGOGY IN ESL WRITING: THE ROLE OF SOCRATIC SEMINARS	291-294
<i>Sobirova Feruza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA DARSNI REJALASHTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	295-299
<i>Karimova Sadoqat</i> CONCEPTUAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN IN A MONTESSORI EDUCATIONAL ENVIRONMENT	300-302
<i>Солохиддинова Фазилатхон</i> МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В АСПЕКТЕ РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКОГО ПОНЯТИЯ «ИМЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ»	303-306
<i>Sayidova Nilufar</i> ZAMONAVIY MUZEY EKSPOZITSİYALARIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING ILMIY - AMALIY AHAMIYATI	307-310
<i>Ne'matova Mahfuzaxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINING NUTQ FAOLIYATINI FAOL RIVOJLANTIRISHDA FE'L SO'Z TURKUMINING TUTGAN O'RNI	311-313

TIBBIYOT FANLARI

Sobirova Mavludaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR314-316

Ахмаджонова Хуршидабону, Рустамова Шахиста

НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ИЗУЧЕНИЮ НАСЛЕДСТВЕННАЯ

ПРЕДРАСПОЛОЖЕННОСТЬ ВИРУСАМИ ГЕПАТИТА С (HCV) И В (HBV) НА

МОЛЕКУЛЯРНОМ УРОВНЕ317-322

Xoshimov Muslimbek, Karimjonov Jaloliddin, Inomov Kamoliddin, Izatullayeva Mohlaroyim

O'ZBEKISTONDA NEYRODEGENERATIV KASALLIKLARNING TARQALISH SABABLARI VA

NEYRODEGENERATIV KASALLIKLAR RIVOJLANISHIDA ASTROSITLARDAGI REAKTIV

O'ZGARISHLAR323-326

Мамарова Шодила, Инатуллаева Рано, Сотиболдиева Умида, Кодиржанов Жавохир

ВИТАМИН D: МЕТАБОЛИЗМ, БИОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ, ДЕФИЦИТ И

ПРОФИЛАКТИКА327-336

PSIXOLOGIYA FANLARI

Ismoilov Temurbek

VERBAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY VA IJTIMOY

KONTEKSTNING ROLI337-342

ZAMONAVIY MUZEY EKSPOZITSIYALARIDA INTERAKTIV TEKNOLOGIYALARNING ILMIY - AMALIY AHAMIYATI

Sayidova Nilufar Bahodir qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti doktoranti

O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri

Email: nilusayid96@gmail.com

Annotatsiya. Muzeylar jamiyat hayotida muhim ilmiy-ma'rifiy institut sifatida faoliyat yuritib, tarixiy va madaniy yodgorliklarni o'rganish, saqlash hamda keng jamoatchilikka yetkazish vazifasini bajaradi. Ular milliy merosni asrab-avaylash bilan birga, uni ilmiy asosda tadqiq etish va targ'ib qilish orqali jamiyatning ma'naviy va madaniy rivojiga xizmat qiladi. Mazkur maqolada zamonaviy muzey ekspozitsiyalarida interaktiv texnologiyalardan foydalanishning ilmiy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Raqamli, multimedia, virtual va kengaytirilgan reallik vositalari orqali muzeylarning ilmiy-ta'limiy, kommunikativ va tarbiyaviy funksiyalarini kuchaytirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, interaktiv texnologiyalarning tashrif buyuruvchilarning idrok etish jarayoni va muzey muhitidagi faol ishtirokiga ta'siri ochib beriladi. Tadqiqot natijalari interaktiv yondashuvlarning muzeyshunoslik fanini rivojlantirish hamda madaniy merosni ommalashtirishdagi ahamiyatini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: muzeyshunoslik, interaktiv texnologiyalar, ekspozitsiya, raqamli muzey, madaniy meros, kiosk, press-reviz.

SCIENTIFIC AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN MODERN MUSEUM EXHIBITIONS

Sayidova Nilufar Bahodir qizi

Doctoral Researcher (PhD)

Kamoliddin Behzod National Institute of Fine Arts and Design

Tashkent, Republic of Uzbekistan

Annotation Museums function as important scientific and educational institutions in the life of society, carrying out the tasks of studying, preserving, and disseminating historical and cultural heritage to the general public. Along with safeguarding national heritage, they contribute to the spiritual and cultural development of society through its scientific research and promotion. This article analyzes the scientific and practical aspects of using interactive technologies in modern museum exhibitions. The possibilities of enhancing the scientific-educational, communicative, and educational functions of museums through digital, multimedia, virtual, and augmented reality tools are examined. In addition, the impact of interactive technologies on visitors' perception processes and their active engagement within the museum environment is revealed. The research findings substantiate the significance of interactive approaches in the development of museology and in the popularization of cultural heritage.

Keywords: museology, interactive technologies, exhibition, digital museum, cultural heritage, kiosk, press release.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i2/n64>

An'anaviy muzeyshunoslik fani muzeylar tarixini, ularning ijtimoiy, ma'naviy va ma'rifiy funksiyalarini, shuningdek, muzey ishining nazariy va uslubiy asoslarini o'rganadigan mustaqil fan sohasi sifatida shakllangan. Ushbu fan muzey faoliyatini tizimli tashkil etish, fondlarni ilmiy asosda yuritish va ekspozitsiyalarni samarali shakllantirish masalalarini qamrab oladi.

Biroq yangi davr ilm-fani muzeylarni an'anaviy ekspонат namoyish etish makonidan interaktiv ilmiy-ma'rifiy muhitga aylantirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda muzeylar jamiyat bilan muloqot qiluvchi, bilim beruvchi va innovatsion g'oyalarni targ'ib qiluvchi muhim

institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu jarayonda interaktiv texnologiyalar muzey ekspozitsiyalarining mazmuni va shaklini tubdan o'zgartirayotgan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Muzeylarning jamiyat, ayniqsa, yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni alohida ahamiyatga ega. Ularning fondlarida saqlanayotgan noyob va bebaho meros namunalari asrash, chuqur o'rganish hamda xalqaro miqyosda targ'ib etish milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, muzeylar mustaqillik g'oyalariga sadoqat va Vatanga muhabbat ruhini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.[3; 135-136b]

Turli yo'nalishdagi eksponatlar jamlangan muzeylar O'zbekistonning ijtimoiy va madaniy hayotida, uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini yoritishda muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat mamlakat fuqarolari, balki xorijiy sayyohlar uchun ham boy tarixiy meros bilan tanishish imkonini yaratadi. Muzeylar orqali tashrif buyuruvchilarda ajdodlar merosiga hurmat va faxr tuyg'usi shakllanadi. Bugungi globallashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyatning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va undan foydalanish madaniyatini tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda tashrif buyuruvchi endi faqat kuzatuvchi yoki tinglovchi rolda emas, balki mazmunni anglash va talqin qilish jarayonining bevosita ishtirokchisiga aylanmoqda. Bu holat, ayniqsa, madaniy-ma'rifiy muassasalar, xususan muzeylar faoliyatida yaqqol namoyon bo'lib, an'anaviy statik ekspozitsiyalar zamonaviy auditoriya ehtiyojlarini to'liq qondira olmayotganini ko'rsatmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, muzey ekspozitsiyalarini interaktiv texnologiyalarsiz tasavvur etish tobora qiyinlashib bormoqda. Sensorli ekranlar, raqamli rekonstruksiylar, virtual va kengaytirilgan reallik elementlari, multimedia installyatsiyalar tashrif buyuruvchiga nafaqat ma'lumot olish, balki tarixiy va madaniy jarayonlarni "his etish", ularni mustaqil ravishda o'rganish imkonini bermoqda. Interaktiv yondashuv ekspozitsiya mazmunini jonlantiradi, idrok jarayonini faollashtiradi hamda bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, yosh avlod uchun raqamli muhitga mos, vizual jihatdan jozibador va tushunilishi oson bo'lgan ekspozitsiyalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy yoshlar axborotni asosan raqamli platformalar orqali qabul qilishga odatlangan bo'lib, ular uchun interaktivlik va muloqotga ochiqlik asosiy motivatsion omillardan biridir.[1;56-57b] Shu bois muzeylarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat tashrif buyuruvchilar sonini oshirish, balki muzeyning ilmiy-ma'rifiy salohiyatini kuchaytirish nuqtayi nazaridan ham dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Zamonaviy muzey ekspozitsiyalarida interaktiv texnologiyalar turli shakl va vositalar orqali joriy etilmoqda hamda ular muzey faoliyatining mazmunan va shaklan yangilanishiga xizmat qilmoqda. Xususan, sensorli ekranlar va multimedia panellari orqali tashrif buyuruvchilar eksponatlar haqidagi batafsil ma'lumotlarni mustaqil ravishda tanlash, ko'rish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bunday texnologiyalar statik matnli izohlar o'rnini bosib, axborotni grafik, audio va video formatlarda taqdim etish orqali idrok jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Audiovizual vositalar hamda virtual reallik (VR) texnologiyalari esa tarixiy voqealar va madaniy jarayonlarni uch o'lchamli muhitda namoyon etish imkonini beradi. VR orqali tashrif buyuruvchi o'zini muayyan tarixiy davr yoki voqea markazida his etib, o'tmish muhitiga "sho'ng'ish" tajribasini boshdan kechiradi. Bu esa abstrakt tushunchalarni jonli va obrazli shaklda anglashga xizmat qilib, muzey ekspozitsiyasining ta'sirchanligini oshiradi. [2;118-119b]

Kengaytirilgan reallik (AR) elementlari real eksponatlar bilan raqamli axborotni uyg'unlashtirgan holda taqdim etilishi bilan ahamiyatlidir. Masalan, mobil qurilmalar yoki maxsus displeylar orqali eksponatning dastlabki ko'rinishi, uning funksional holati yoki tarixiy rivojlanish bosqichlarini ko'rish mumkin bo'ladi. Bu yondashuv tashrif buyuruvchilarning qiziqishini kuchaytirib, ularni faol o'rganish jarayoniga jalb etadi. Shuningdek, raqamli rekonstruksiylar va virtual ekskursiyalar muzey hududidan tashqarida ham madaniy meros bilan tanishish imkonini yaratadi. Ayniqsa, noyob yoki yo'qolib ketgan obidalarni raqamli tiklash orqali ularni ilmiy va ta'limiy maqsadlarda keng qo'llash mumkin bo'ladi. Virtual ekskursiyalar esa masofaviy ta'lim, inkluzivlik va xalqaro auditoriyani jalb etish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Ekspozitsiya yaratishda va uni namoyish qilishda interaktiv loyihalar hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan muzeylar qatoriga O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston davlat san'at muzeyi va Politehnika muzeylarini misol qilish mumkin. Keyinchalik O'lkashunoslik muzeylari hamda boshqa ixtisoslikdagi muzeylarga tatbiq qilindi. Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, interaktiv texnologiyalar bilimni faqat matn yoki og'zaki izohlar orqali emas, balki vizual va tajribaviy usullar yordamida yetkazish imkonini beradi. Bu esa kognitiv jarayonlarni faollashtirib, o'rganish samaradorligini oshiradi, murakkab ilmiy tushunchalarning osonroq va chuqurroq o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa interaktiv ekspozitsiyalar muzeylarning raqobatbardoshligini oshirib, tashrif buyuruvchilar oqimini ko'paytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, o'quv dasturlarini boyitish hamda madaniy merosni keng jamoatchilik orasida ommalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda inson tajribasi markazga qo'yilib, muzey muhiti qulay, ochiq va muloqotga tayyor makon sifatida shakllanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv texnologiyalarni ta'limiy yoki madaniy muassasalarga, xususan, muzey ekspozitsiyalariga joriy etish jarayoni faqat texnik infratuzilmani yaratish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon kompleks yondashuvni, ya'ni ilmiy asoslangan mazmun, puxta metodik rejalashtirish va texnologik yechimlarning o'zaro uyg'unligini talab etadi. Ekspozitsiyada taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishonchli manbalarga tayangan holda ishlab chiqilishi, mavzular mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilishi hamda tomoshabinning bilim darajasi va qabul qilish xususiyatlari hisobga olinishi zarur. Interaktiv texnologiyalar esa aynan shu ilmiy mazmunni sodda, tushunarli va vizual jihatdan jozibador shaklda yetkazib berishga xizmat qilishi kerak. Masalan, raqamli panellar, multimedia ilovalar, virtual yoki kengaytirilgan reallik elementlari murakkab tarixiy, ilmiy yoki madaniy jarayonlarni ko'rgazmali tarzda tushuntirish imkonini beradi. Biroq bunday texnologiyalar mazmunga bo'ysundirilmagan holda, faqat tomoshabinni jalb qilish maqsadida qo'llansa, ularning ta'limiy va ma'rifiy samaradorligi pasayadi. Shu nuqtai nazardan, interaktiv texnologiyalarni joriy etishda asosiy e'tibor ularning qanday ishlashiga emas, balki nimani va qanday tushuntirishga qaratilishi lozim. Texnologiya o'z-o'zicha maqsadga aylanib qolmasligi, balki ilmiy g'oyani ochib beruvchi, bilimni chuqurlashtiruvchi va auditoriya bilan samarali muloqotni ta'minlovchi vosita sifatida xizmat qilishi zarur. Faqat shunday yondashuvgina interaktiv ekspozitsiyalarning uzoq muddatli ta'limiy, tarbiyaviy va madaniy ahamiyatini ta'minlay oladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Orifjonova G.R.c0'zbekiston muzeylarining innovatsion tajribasi (XX asr oxiri - XXI asr boshlari)-Toshkent:2023.
2. Курязова Д.Т.Музей иши асослари.-Тошкент: Lesson press, 2019.
3. Замонавий музейшунослик тенденциялари. Тошкент, Фан. 2019.
4. Муҳамедова М. Музейларда халқаро туризмнинг аҳамияти // Гулистон. 2010. № 4. – Б.
5. Музейлар замонавий маданияти тизимида / Республика илмий-назарий анжумани материаллари / Тузувчилар: Эгамов А., Акилова К.- Т.: Санъат, 2007. – 222 б.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil). – 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.